

**“Qimmatbaxo metall va toshlardan yaasalgan maxsulotlar chakana savdosi bilan shug’ullanuvchi tadbirkorlik sub’yektlarining savdo ob’yektlari dislokatsiyasi” interaktiv xizmati
REGLAMENTI**

1. Davlat xizmatining nomi

Qimmatbaxo metall va toshlardan yaasalgan maxsulotlar chakana savdosi bilan shug’ullanuvchi tadbirkorlik sub’yektlarining savdo ob’yektlari dislokatsiyasi

1.1 Davlat tashkiloti

Namangan viloyati hokimligi

1.2 Yuqori turuvchi organ

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

1.3 Ko'rsatiladigan xizmat sohasi

itsenziyalash va ruxsat beruvchi hujjatlar

1.4 Xizmatdan foydalanuvchining toifasi

- Yuridik shaxs
- Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar

1.5 Davlat xizmatini ko'rsatish shakli

- An'anaviy

1.6 Amal qilish muddati

5 yil

1.7 Murojaat etish usullari

- Tashrif (shaxsiy, ishonchli vakil)
- An'anaviy pochta xizmati
- Elektron pochta

1.8 Xizmat haqqi

Bepul

1.9 Davlat xizmatini ko'rsatish muddati

15 ish kuni

2. Xizmatni ko'rsatishning huquqiy asosi

[Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillari to'g'risida Qimmatbaho metallardan yasalgan buyumlarning asillik darajasi va tamg'alanishi to'g'risida «Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida](#)

2.1 Kerakli hujjatlar

-Ruxsatnoma olish uchun ariza berish

-Yuridik shaxsning faoliyati xususiyatiga muvofiq o'lovlar doirasida «O'zstandart» agentligi organlari tomonidan berilgan tarozilar, (turli og'irlikdagi) toshlarning tekshirilgani to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi

-Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bilan ishlarni amalga oshirish mo'ljallanayotgan ob'ektning yong'in xavfsizligi talablariga muvofiqligi to'g'risida davlat yong'in nazorati organlari xulosasining nusxasi

-Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan foydalanish mo'ljallanayotgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan ajratilgan ob'ektlar uchun ob'ektning texnikaviy mustahkamligi hamda uning shartnoma asosida texnikaviy qo'riqlash pultiga ulanganligi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar hududiy organlari huzuridagi qo'riqlash bo'linmalari tomonidan ob'ektni tekshirish dalolatnomasining nusxasi

-Ro'yxatdan o'tkazish guvohnomasi berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish va uni berish uchun yig'imlar to'langani to'g'risidagi to'lov hujjatining nusxasi

2.2 Xizmat ko'rsatish bosqichlari

Shahar va tumanlar "yagona darcha" markazlari

2.3 Ruxsat beruvchi organ

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki huzuridagi Qimmatbaxo metallar agentligining Davlat asillik darajasini belgilash palatasi